

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI
JAHON ADABIYOTI VA QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK KAFEDRASI

**"SHARQ MUMTOZ POETIKASI
MUAMMOLARI:
NAVOIY VA RUMIY"**

*mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari
2025-yil, 22-aprel*

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
ALISHER NAVAI TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE
DEPARTMENT OF WORLD LITERATURE AND
COMPARATIVE LITERATURE

*Proceedings of the international
scientific-theoretical conference titled*

**"ISSUES IN ORIENTAL CLASSICAL
POETICS: NAVO'I AND RUMI"**

April 22, 2025

Toshkent
"Nurafshon business"
2025

UO'K 845.711.05

KBK 133.585.3

"Sharq mumtoz poetikasi muammolari: Navoiy va Rumiy" mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Toshkent: Nurafshon business, 2025. – 1016 b.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Mas'ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov,
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay'ati:

Shuhrat Sirojiddinov (O'zbekiston), Münevver Tekcan (Turkiya), Uzoq Jo'raqulov (O'zbekiston), Agnieska Vojta (Germaniya), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Rukhsana Iftikhar (Pokiston), Almaz Ulviy (Ozarbayjon), Suvon Meli (O'zbekiston), Sergey Nikonorov (Rossiya), Akibatxon Ismanova (Qirg'iziston), Makpal Orazbek (Qozog'iston), Aleksey Pilev (Rossiya), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Shafiqqa Yorqin (Afg'oniston), Amir Ne'mati Lima'i (Eron), Nafas Shodmonov (O'zbekiston), Rakymjan Turysbek (Kazakhstan), Dilmurod Quronov (O'zbekiston), Gulnoz Xalliyeva (O'zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston).

Sharq-islom madaniyatining ikki buyuk vakili – Alisher Navoiy va Jaloliddin Rumiy ijodi badiiyati, tarixiy-tipologik xossalariini ilmiy-nazariy tadqiq etishga qaratilgan "Sharq mumtoz poetikasi muammolari: Navoiy va Rumiy" mavzuidagi mazkur konferensiya materiallari ulkan geografik ko'lami, tipologik talqinlari, tahvilili xulosalarini bilan o'ziga xosdir. To'plam to'rt bo'limdan tashkil topgan. Har bir bo'lim o'zicha mustaqil ilmiy muammoni aks ettirishi bilan birga, Navoiy va Rumiy poetikasi sathida o'zaro umumlashadi, jahon adabiyoti, qiyosiy adabiyotshunoslik, tarixiy hamda nazariy poetika, hozirgi adabiy jarayon muammolarini aks ettirishi bilan ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik ahamiyat kash etadi.

Ilmiy to'plam adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid, adabiyot tarixi, qiyosiy adabiyotshunoslik, tarjima nazariyasi, tarjimashunoslik bilan shug'ullanayotgan doktorant, tayanch doktorantlar; magistrant va bakalavriyat bosqichi talabalari, shuningdek, badiiy adabiyot masalalari bilan qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

To'plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2025-yil 3-apreldagi yig'ilishi qaroriga asosan nashrha tavsiya etilgan.

**Mualliflar qarashlari tahririyat nuqtayi nazaridan
farqlanishi mumkin.**

UDC 845.711.05

KBK 133.585.3

Proceedings of the International Scientific-Theoretical Conference on the topic “Issues in Oriental Classical Poetics: Navoi and Rumi” – Tashkent: Nurafshon Business, 2025. – 1016 pages.

ISBN 978-9910-8871-6-1

*Editor-in-Chief:
Shuhrat Sirojiddinov,
Doctor of Philological Sciences, Academician*

Editorial Board:

Shuhrat Sirojiddinov (Uzbekistan), Münevver Tekcan (Turkiye), Uzoq Jo'raqulov (Uzbekistan), Agnieszka Wojta (Germany), Nozliya Normurodova (Uzbekistan), Rukhsana Iftikhar (Pakistan), Almaz Ulviy (Azerbaijan), Suvon Meli (Uzbekistan), Sergey Nikonorov (Russia), Akibatkhon Ismanova (Kyrgyzstan), Makpal Orazbek (Kazakhstan), Aleksey Pilev (Russia), Nurboy Jabborov (Uzbekistan), Shafiqa Yorqin (Afghanistan), Amir Ne'mati Lima'i (Iran), Nafas Shodmonov (Uzbekistan), Rakymjan Turysbek (Kazakhstan), Dilmurod Quronov (Uzbekistan), Gulnoz Khaliliyeva (Uzbekistan), Dilnavoz Yusupova (Uzbekistan).

The present conference proceedings, titled “Issues in Oriental Classical Poetics: Navoi and Rumi” focus on the scholarly and theoretical exploration of the artistic, historical, and typological dimensions of the works of two eminent figures of Eastern-Islamic culture – Alisher Navoi and Jalaluddin Rumi. With its broad geographical scope, comparative perspectives, and analytical insights, the collection offers a unique contribution to the field. The volume is organized into four sections. Each section explores a distinct scholarly issue while also highlighting the shared poetic features and mutual influences in the works of Navoi and Rumi. The discussions extend to themes in world literature, comparative literary studies, historical and theoretical poetics, and contemporary literary discourse, contributing to both intellectual and aesthetic understanding.

This collection is intended for doctoral and postgraduate researchers, as well as master's and undergraduate students in fields such as world literature, literary theory, literary criticism, comparative literature, translation theory, and translation studies. It may also be of interest to anyone engaged in the study of artistic literature.

The publication was recommended by the Scientific and Technical Council of Alisher Navoiy Tashkent State University of Uzbek Language and Literature on April 3, 2025.

The views expressed in the articles do not necessarily reflect those of the editorial board.

MUNDARIJA

- | | | |
|----|-----------------------------------------------------------------------------|----|
| 1. | <i>Shuhrat SIROJIDDINOV.
IKKI BUYUK – IKKI TURK (Kirishso'z ornida)</i> | 15 |
|----|-----------------------------------------------------------------------------|----|

I SHO'BA NAVOIY VA RUMIY: BADIYAT VA TIPOLOGIYA

- | | | |
|-----|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 2. | <i>Узоқ ЖҮРАҚУЛОВ.
МУМТОЗ ПОЭТИКАДА “ИДЕАЛ ОБРАЗ” МУАММОСИ</i> | 20 |
| 3. | <i>Қозоқбой ЙЎЛДОШ.
“ЛАЙЛИ ВА МАЖНУН” ДОСТОНИДА РУҲИЯТ ТАСВИРИ</i> | 48 |
| 4. | <i>Сувон МЕЛИ.
“ХАМСА”ДА МУАЛЛИФ “МЕН”И</i> | 57 |
| 5. | <i>Gulnar Agig JAFARZADE.
THE INFLUENCE OF RUMI ON ALISHER NAVAI'S PERSIAN RUBAIYAT</i> | 68 |
| 6. | <i>Münevver TEKCAN.
ALI SHIR NAVA'I'S IMPACT ON THE TIMURID RENAISSANCE</i> | 79 |
| 7. | <i>Сергей НИКАНОРОВ.
К ВОПРОСУ О ФУНКЦИОНАЛЬНОЙ ЗНАЧИМОСТИ ЭПИТЕТОВ В СБОРНИКЕ “СОКОРОВИЩНИЦА МЫСЛЕЙ” АЛИШЕРА НАВОИ</i> | 90 |
| 8. | <i>Maқсуд АСАДОВ.
НАВОИЙ АСАРЛАРИДА ИЖОД ВА ИЖОД АҲЛИ ТАЛҚИНИ</i> | 99 |
| 9. | <i>Шоира АҲМЕДОВА.
АЛИШЕР НАВОИЙ ВА ЖАЛОЛИДДИН РУМИЙ МАКТУБЛАРИ ҲАҚИДА</i> | 107 |
| 10. | <i>Гулноз ХАЛЛИЕВА, А. ЮСУПОВА.
ЕВРОПАДА РУМИЙШУНОСЛИК ВА СУЛТОН ВАЛАДНИНГ БҮЮК БРИТАНИЯДА САҚЛНААЁТГАН АСАРЛАРИ ХУСУСИДА</i> | 116 |

	<i>Оразбек МАҚПАЛ, Айнур АНАПИНА.</i>	
11.	ӘДЕБІЕТТЕГІ ИНТЕРМӘТІНДІЛІК: АБАЙ ШЫҒАРМАЛАРЫНЫң ӘЛИШЕР НАУАЙМЕН САБАҚТАСТЫҒЫ	121
	<i>Сайфиддин РАФИДДИНОВ.</i>	
12.	НАВОЙ ВА РУМИЙ ИЖОДИННИҢ ҚИЁСИЙ ЎРГАНИШ МАММОЛАРИ	128
	<i>Dilnavoz YUSUPOVA.</i>	
13.	MAVLONO JALOLIDDIN RUMIY VA ALISHER NAVOIY ASARLARIDA SAMARQAND TALQINI	137
	<i>Илхом ФАНИЕВ.</i>	
14.	ЖАЛОЛИДДИН РУМИЙ ВА АЛИШЕР НАВОЙ АСАРЛАРИДА ИНТЕРТЕКСТУАЛЛИК	146
	<i>Islamjon YAKUBOV.</i>	
15.	JALOLIDDIN RUMIY MEROSSI VA ZAMONAVIY O'ZBEK ROMANCHILIGI	153
	<i>Gulbahor ASHUROVA.</i>	
16.	TARIXIY SHAXS TASVIRI: NAVOIY OBRAZI	162
	<i>Qahramon TO'XSANOV, Muhammadamin JURAQULOV.</i>	
17.	RUMIY VA NAVOIY IJODIDA ILM-MA'RIFAT TALQINI	170
	<i>Mahmadiyor ASADOV.</i>	
18.	HOMO POETIKUS KONSEPSIYASI: NAVOIY VA RUMIY	
	<i>Sobit AVEZOV.</i>	
19.	BOQIYLIKKA DAXLDOR BITIKLAR	174
	<i>Адхамбек АЛИМБЕКОВ.</i>	
20.	АЛИШЕР НАВОЙИННИҢ ТУРКИЯЛИК ШОГИРДИ	182
	<i>Насиба БОЗОРОВА.</i>	
		187
21.	ХАЗРАТИ МАВЛОНОНОНИНГ "МАЖКОЛИСИ САБЪА" ("ЕТТИ МАЖЛИС") АСАРИДА НАЎТ	191
	<i>Yulduz ZIYAYEVA.</i>	
22.	"OSHIQ-MA'SHUQA-RAQIB" OBRAZI GENEZISI	198
	<i>Olmos XURRAMOV.</i>	
23.	ALISHER NAVOIYNING "HOLOTI PAHLAVON MUHAMMAD"DA TARIXIY HAQIQAT IFODASI	205
	<i>Hasamuddin HAMDARD.</i>	
24.	AMIR ALISHER NAVOIYNING HEROT MAKTABINING TUSHUNCHALARINI TEMURIYLAR SIYOSATIGA OTKAZISHDAGI ROLI	210

25.	<i>Leyla HƏSƏNOVA.</i> AZƏRBAYCAN ƏDƏBİYYATINDA ROMANTİZM	220
26.	<i>Marifat RAJABOVA, Madina IBOTOVA.</i> RUMIY VƏ NAVOIY LIRİKASIDA KO'NGİL METAFORASI	226
27.	<i>Sherxon QORAYEV.</i> MAVLAVIY "GIRDİ DARVESHLAR" NING RAQSU SAMO' MAJLISLARI	231

**II SHO'BA
SHARQ ADABIYOTIDA POETIKA
MUAMMOLARI**

28.	<i>Улугбек ҲАМДАМ.</i> ГЛОБАЛ ДҮНӘДАГИ ЙҮЛЧИ ЮЛДУЗЛАР	244
29.	<i>Zafer TOPAK.</i> ALI ŞİR NEVÂYÎ'NİN TÜRKÇE DİVANLARINDAKİ ŞİİRLE İLGİLİ BENZETMELER VE BUNLARIN ŞAIRİN POETİKASINA KATKILARI	254
30.	<i>Gulnoz XALLIYEVA, Adiba MA'DIYEVA.</i> ZAMONAVIY O'ZBEK VA NEMIS SHE'RIYATIDA BAHOR OBRAZINING BADIY TALQINI	266
31.	<i>Dilrabo QUVVATOVA.</i> MUMTOZ POETIKADA MASNAVIYGA OID QARASHLAR TALQINI	275
32.	<i>Byсала НАСИБОВА.</i> КОМПЛЕКС НОВРУЗОВСКИХ ОБРЯДОВ В АЗЕРБАЙДЖАНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ	279
33.	<i>Диляра ХАЛИЛОВА.</i> К ВОПРОСУ О МЕЖКУЛЬТУРНОМ ПОТЕНЦIAЛЕ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТОВ НАВОИ И ПУШКИНА В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА	285
34.	<i>Orazbek MAQPAL, Әнуар ЗЕРДЕ.</i> НҮРЛАН МӘҮКЕНҰЛЫ ШЫҒАРМАШЫЛЫҒЫ ЖӘНЕ АБАЙ ДӘСТУРИ	289
35.	<i>Olim OLТИНБЕК.</i> RAUF PARFI SHE'RLARINING VAZN XUSUSIYTLARI	297
36.	<i>Farhad RAHİMİ.</i> FERAĞÎ'NİN MİFTAHU'L-LÜGAT SÖZLÜĞÜNÜN DÜZENİ VE EL YAZMASI ÜZERİNE	312

37.	<i>Orzigel HAMROYEVA.</i> QOFIYAGA OID BIRLIKLARNING QIYOSIY TAHLILI	325
38.	<i>Ainisa AKMATOVA, Makhlie NAZAROVA</i> THE SPECIFIC PECULIARITIES OF THE IMAGE "WOMAN" IN THE EPIC MANAS AND IN ALISHER NOVOIY'S WORKS	333
39.	<i>Tojxi HOPOV.</i> АЛИШЕР НАВОЙЙ БОРЛИҚ ФАЛСАФАСИДА КОСМОС, МАКОН ВА ЗАМОН ТАЛҚИНІ	341
40.	<i>Rustam SHARIPOV.</i> МАHMUDUXO'JA BEHBUDIY VA ABDURAUF FITRATNING MILLIY DAVLATCHILIK HAQIDAGI QARASHLARI	353
41.	<i>Feruza BURXANOVA.</i> BADIY SO'Z JILOSI	370
42.	<i>Ольга ЧИЖИКОВА, Ирина ЯНОВСКАЯ.</i> ЧЕРТЫ КОСМИЗМА В СТИХОТВОРЕНИИ НИКОЛАЯ КЛЮЕВА "БЕЛАЯ ИНДИЯ" И В НЕКОТОРЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ВОСТОЧНЫХ АВТОРОВ	377
43.	<i>Komiljon HAMROEV.</i> SHARQ NIKOYATLARINING TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI	386
44.	<i>Нилуфар УМАРОВА.</i> УЛЖАС СУЛАЙМОНОВ ШЕРЬИЯТИ	393
45.	<i>Zebiniso BEKMURADOVA.</i> PAREMIYADA XIAZM	399
46.	<i>Азамат ХАЙРУЛЛАЕВ.</i> НОРМУРОД НОРҚОБИЛОВ ҲИКОЯЛАРИДА ОНОМАСТИКА	404
47.	<i>Салават АЮПОВ.</i> ОТЗВУКИ РУССКОЙ КЛАССИКИ В ЧЕХОВСКОМ ЭТЮДЕ "БЕЗНАДЕЖНЫЙ"	422
48.	<i>پوھنیار امرالله محمدی</i> بررسی زبان شناسانه استعارة مفهومی عشق در اشعار فارسی نوابی <i>Tozagul MATYOQUBOVA.</i>	429
49.	<i>G'AFUR G'ULOM SHE'RİYATIDA LIRIK QAHRAMON VA KECHINMANING POETIK IFODASI</i>	437
50.	<i>Ирина ЯНОВСКАЯ, Ольга ЧИЖИКОВА.</i> СКУЛЬПТУРНЫЕ ОБРАЗЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ А.С.ПУШКИНА	445

	<i>Шоҳрат Нусрат МАМЕДОВА.</i>	
51.	ЭТНОКУЛЬТУРНАЯ СЕМАНТИКА ДЕТСКИХ ДРАМ МИРВАРИД ДИЛЬБАЗИ	453
52.	<i>Umida ABDULLAYEVA. "SHAYX SAN'ON" QISSASIDA USTOZ-SHOGIRD MASALASI</i>	466
	<i>Yorqinoy NASIRDINOVA.</i>	
53.	ALISHER NAVOIY OBRAZI FRANSUZ ADABIY VA TARIXIY TAFAKKURIDA	470
54.	<i>Sayid Nurulloh AMINYOR. ALISHER NAVOIY MA'RIFATNING PORLOQ QUYOSHI</i>	478
55.	<i>Qatabek BABAYEV, Munisa BOLTAYEVA. ÜBERSETZUNGSMETHODE VON TECHNISCHEN TEXTEN</i>	491
	<i>Нуриддин УБАЙДУЛЛАЕВ.</i>	
56.	"ТАНАЗЗУЛ" РОМАНИДА МУСУЛМОНҚУЛ МИНГБОШИ ОБРАЗИ	496
57.	<i>Matluba MAMADIYAROVA. "ALPOMISH" VA "BEOVULF" EPOSALARIDA AYOL FENOMENI</i>	503
58.	<i>Mahbuba QARSHIYEVA. ALISHER NAVOIY: MATNSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK</i>	508
	<i>Feruza SAPAYEVA.</i>	
59.	MAXTUMQULI ASARLARINING TURKIY TILLARDAGI TARJIMALARI VA ULARNING TADQIQI	514
60.	<i>Bahor SHUKUROVA. BADIY ADABIYOTDA RAMZIY OBRAZLAR TALQINI</i>	522
	<i>Nodira SAIDOVA.</i>	
61.	"NAVOIY VA ILOHIYOT"DA "GERMENEVTIK DOIRA" DAN FOYDALANISH	530
	<i>Sevinchoy YOQUBOVA.</i>	
62.	XX ASR BOSHLARI O'ZBEK SHE'RIYATINING YANGILANISH OMILLARI	534
	<i>Нибуфар ДИЛМУРОДОВА.</i>	
63.	АСАД ДИЛМУРОД ЭССЕЛАРИНИНГ ГЕНЕТИК АСОСЛАРИ, УЛАРДА МУАЛЛИФ ИФОДА УСЛУБИ ВА БАДИЙ- ЭСТЕТИК КОНЦЕПЦИЯСИ	541
	<i>Nodira XUDOYNAZAROVA.</i>	
64.	JALOLIDDIN RUMIY VA ALISHER NAVOIY JAHON ADABIYOTI KONTEKSTIDA	547

	<i>Maftuna NORQULOVA.</i>	
65.	"HALI HAYOT BOR..." QISSASIDA QAHRAMON KONSEPSIYASI	552
66.	<i>Dilnavoz BOYZOQOVA.</i> "YUSUF VA ZULAYHO" QISSASIDA OBRAZ TALQINI	560
67.	<i>Махфузахон ХОМИДОВА.</i> "БАДОЙИЙ УЛ-БИДОЯ"ДА ИНТЕРТЕКСТУАЛЛИК	568

**III SHO'BA
NAVOIY VA RUMIY IJODIDA MA'RIFAT VA
MILLIYAT MASALALARI**

	<i>Nafas SHODMONOV.</i>	
68.	"LAYLI VA MAJNUN" DOSTONI SYUJETI VA G'OYASINI SHAKLLANTIRGAN BA'ZI OMILLAR	578
69.	<i>DR. KEMAL YAVUZ ATAMAN.</i> OSMANLI DEVLETİ'NİN MANEVİ VE HAKİKİ MÜESSİSİ MEVLÂNÂ CELÂLEDDİN-İ RÛMÎ	584
70.	<i>G'ayrat MURODOV, Shahlo SA'DULLAYEVA.</i> MURSHID VA MURID MUNOSABATI	592
71.	<i>Нұсратулло ЖУМАХҰЖА.</i> ЖАЛОЛИДДИН РУМИЙ "МАСНАВИЙ МА'НВАЙ" АСАРИНИНГ КИРИШ ҚИСМИ МАЗМУНИГА ЧИЗГИЛАР	602
72.	نویسنده: پروفیسور دکتر فضل الرحمن فقیهی هروی نقش امیر علیشیر نوابی در تمثیل‌آفرینی دوره تیموریان هرات	607
73.	<i>Darmonoy O'RAYEVA.</i> RUMIY VA HOZIRGI O'ZBEK SHOIRLARI IJODIDA DUNYO TA'RIFI	619
74.	<i>Ulkar BAKHSHIYEVA.</i> THE ARTISTIC-AETHETIC FEATURES OF THE MYTHOLOGICAL APPROACH IN NIZAMI GANJAVI'S POEM "ISKANDARNAMA" (IN THE CONTEXT OF LEGENDS RELATED TO KHIDR)	624
75.	بشير احمد قرداش صالح	634
76.	<i>Odiljon AVAZNAZAROV.</i> NAVOIY DOSTONLARIDA "QADAM" METAFORASI	642

	<i>Toji NOROV.</i>	
77.	ALISHER NAVOIY FALSAFIY MEROSINING ILOHIY-MA'RIFIY VA MAFKURAVIY ASOSLARI	649
78.	<i>Saodat MUMINOVA. AQL VA IDROK O'RTASIDAGI MUVOZANAT</i>	662
	<i>Мустафа БАЙЭШАНОВ.</i>	
79.	"ПЯТЕРИЦА" НАВОИ В СОКРОВИЩНИЦЕ МИРОВОЙ ЛИТЕРАТУРЫ	667
80.	<i>زینب نوروز علی ؛ شاد محمد سهاب جایگاه عقل در اشعار امیر نظام الدین علیشیر نوابی</i>	671
	<i>Usmon QOBILOV.</i>	
81.	ON THE INTERPRETATION OF THE TRUE OF HUMANITY AND THE UNIVERSE IN ARTISTIC CREATIVITY	678
82.	<i>دکتر نورالرخمن ناصح انسان كامل و انسان شناسى از نظر على شير نوابى و مولانا با روپىكىد تېلىقى</i>	687
83.	<i>Адхамбек АЛИМБЕКОВ. АЛИШЕР НАВОЙ ҲАҚИДА ТУРК ДОСТОНИ</i>	693
	<i>Hamza ATEŞ, Kemal ATAMAN.</i>	
84.	MAVLONO JALOLIDDIN RUMIY ASARLARIDA İJTIMOIY O'ZGARISHLAR	700
85.	<i>Мавжуда НУРИДДИНОВА, “БОР ҚИТОБИ, ЛЕК ПАЙГАМБАР ЭМАС...”</i>	710
86.	<i>Shohista NIYOZOVA. MILLIY QADRIYATNING TAMAL TOSHI</i>	720
87.	<i>Duygu KOCA. ALI ŞİR NEVÂYÎ'NİN ESERLERİNDEN AHLAKÎ DEĞERLER</i>	727
88.	<i>Iroda ISHONXANOVA. XX ASR 40-YILLARIDA NAVOIYSHUNOSLIK</i>	
89.	<i>Ойдин ТУРДИЕВА, Ойша ШУКУРОВА. РУМИЙ ҒАЗАЛЛАРИДА ТИНЧЛИК ҒОЯСИ ТАЛҚИНИ</i>	734
90.	<i>Nargiza SHOALIYEVA. RUMIY VA NAVOINING ISHQQA OID QARASHLARI</i>	741
		747

**IV SHO'BA
NAVOIY VA RUMIY
YOSH TADQIQOTCHILAR TALQINIDA**

91.	<i>Malika SUYUNOVA.</i> HAMZA VA XALQ TEATRI	766
92.	<i>Laylo TO'YCHIYEVA.</i> "ULISS" ROMANIDA TRAGIK VAZIYAT XRONOTOPI	772
93.	<i>Nilufar HAITOVA.</i> HAMID OLIMJON – NAVOIYSHUNOS	
94.	<i>Shaxnoza TURSUNOVA.</i> SIZIF OBRAZI: TURFA TALQINLAR	777
95.	<i>Madina VAHODOVA.</i> "NAVOIY KIRMAGAN UYLAR QORONG'U"	781
96.	<i>Sayohat ARZIQULOVA.</i> FATMA SHENGIL SUZAR IJODIDA RUMIY AN'ANALARI	786
97.	<i>Osiyo SIDDIQOVA.</i> KOMIZM XÜSUSIDA BIR-IKKI SO'Z	794
98.	<i>To'lg'anoy QULJANOVA.</i> ASQAR MAHKAM IJODIDA RUMIYONA OHANGLAR	
	<i>Sabinabonu BERDIYEVA.</i>	802
99.	"ADABIYOTSHUNOSLIK LUG'ATI" NING ELEKTRON MOBIL ILOVASINI YARATISH XUSUSIDA	810 815
100.	<i>Huriniso MENGLIYEVA.</i> DUNYONING AZALIY SAVDOSI	819
101.	<i>Баходир ЖОВЛИЕВ.</i> УНИВЕРСАЛ ОБРАЗЛАР КҮЛАМИ	825
102.	<i>Zilola JO'RAYEVA.</i> NAVOIY VA RUMIY ASARLARIDA TASAVVUF TIMSOLLARI	
103.	<i>Divora O'KTAMOVA.</i> ALISHER NAVOIY FARDLARINING O'RGANILISHI	829
	<i>Hediye Zeynep KÖŞEK.</i>	834
104.	ALI ŞİR NEVÂİ VE MEVLÂNÂ CELÂLEDDİN RUMÎ'NİN ESERLERİNDE TAKVÂ	839
	<i>Selenay SAHİN.</i>	
105.	ALI ŞİR NEVÂİ VE MEVLÂNÂ'NIN SANATSAL VE DÜŞÜNSEL YAKLAŞIMLARININ MİMARİ ESERLER ÜZERİNDEKİ ETKİSİ: SOSYO-KÜLTÜREL BİR DEĞERLENDİRME	849

	<i>Nodirjon G'AFUROV, Shahnoza YO'L DOSHEVA.</i>	
106.	NAVOIY "XAMSA"SI VA RUMIY "NAYNOMA"SIDA "NAY" TIMSOLI	856
107.	<i>Noila ROXATALIYEVA.</i> "DEVONA" VA "JUNUN" TUSHUNCHALARI TALQINI	861
	<i>Sema DÜLGAR.</i>	
108.	ŞAİR FÂTIMA HANIM VE KÜTAHYA MEVLEVÎHÂNESİNE ETKİLERİ	866
	<i>İrem ERDEM.</i>	
109.	ALÌ ŞIR NEVAÎ'NİN MUHAKEMETÜ'L-LUĞATEYN ADLI ESERİNDE EŞANLamlılık	872
	<i>Dilfuza ISMOILOVA.</i>	
110.	"BIR AYOL HAYOTIDAN 24 SOAT" NOVELLASINING KOMPOZITSION TAHLLİLİ	881
111.	<i>Beyza ÖZER.</i> MËKANDAN LÂMEKÂNA: ALÌ ŞIR NEVAÎ VE MEVLÂNÂ	888
	<i>Ahmet Berat COŞKUN.</i>	
112.	MUHÂKEMETÜ'L-LUGATEYN'DE GEÇEN İŞ/HAREKET BILDIREN FIILLER VE BU FIILLERİN KUZEYBATI/KIPÇAK TÜRK LEHÇELERİNDEKİ GÖRÜNÜMLERİ	897
113.	<i>Aziz NORQULOV.</i> "NASOYIM" PINJIDAGI UMR	910
114.	<i>Saodat FAYZIYEVA.</i> JADID MATBUOTIDA NAVOIY IJODI TADQIQI	916
115.	<i>Jobir ISMATILLOYEV.</i> MUNIS IJODIDA NAVOIY AN'ANALARI	
116.	<i>Dovud XO'JAQULOV.</i> NAVOIY VA RUMIY IJODIDA SABR TUSHUNCHASI	924
117.	<i>Nazokat G'OFUROVA.</i> BILGAMISH - BUYUK SHARQNING QADIM DURDONASI	930
	<i>Nargiza SHAMIYEVA, Jazira TULEGENOVA,</i>	
	<i>Nargiza XOLBOBOYEVA.</i>	934
118.	COMPARATIVE STUDY OF MEANING EXPANSION AND NARROWING OF QUALITATIVE ADJECTIVES IN ENGLISH AND UZBEK	938
119.	<i>Go'zal OMONOVA.</i> JALOLIDDIN RUMIY HIKOYALARIDA XULQ-ATVOR MASALASI	944
120.	<i>Madina TURSUNOVA.</i> MARLO VA SHEKSPIR: IJODIY PARALLELLAR VA FARQLAR	949

	<i>Shodiya TURSUNALIYEVA.</i>	
121.	"ABU RAYHON BERUNIY" DRAMASIDA FOJIAVIY VAZIYATLAR TALQINI	952
	<i>Gulzoda SAFAROVA.</i>	
122.	ERKIN A'ZAMNING "ANOYINING JAYDARI OLMASI"	957
	HIKOYASIDA IDILLIYAVIYLIK	
	<i>Nozima KARIMOVA.</i>	
123.	YOVUZ BAHODIR O'G'LINING "YONAYOTGAN BUXORO"	964
	ROMANIDA TARIXIY HAQIQAT	
	<i>Suhrobjon ZIYODOV.</i>	
124.	YOSHLAR SHE'RIYATIDA NAVOIYGA MUROJAAT	970
	<i>Sherzod USMONOV.</i>	
125.	ZEBO MIRZO SHE'RIYATIDA METAFORIK OBRAZLAR	977
	<i>Narmin BABAева.</i>	
126.	ЭТИОЛОГИЧЕСКАЯ СЕМАНТИКА МИФОЛОГИЧЕСКИХ ОБРАЗОВ	983
	<i>Yüsra KARACA.</i>	
127.	HZ. MEVLANA'NIN YOLU VE HAT SANATI	993
	<i>Lobar BERDIYEVA.</i>	
128.	SHAVKAT RAHMON SHE'RIYATIDA RAMZIYLIK	999
	<i>Gulsevar MAMANOVA.</i>	
129.	"YUSUF VA ZULAYHO": GENEZIS MASALASI	
	<i>Shahzoda VALIJONOVA.</i>	1006
130.	NAVOIY E'TIROF ETGAN XAMSANAVIS	
	<i>Dilrabo HAYDAROVA.</i>	
131.	O'ZBEK-TURK HIKOYALARIDA KOMIKLIK	1014
	<i>Saida DAVRONOVA.</i>	
		1018
132.	ALISHER NAVOIY FAOLIYATINING O'ZBEKİSTON KİNOFOTOFONO MILLİY ARXIVI HUJJATLARIDA YORİTİLİŞİ	1022
	<i>Mirjalol SODIQOV.</i>	
133.	"BUYUKLAR TUHFASI" - MUMTOZ ADABIYOT TARIXIGA DOİR TADQIQOT	1029
	<i>Muhabayo İSTAMOVA.</i>	
134.	AYOL OBRAZI JOZIBASI	1036
	<i>Iroda ESHMURADOVA.</i>	
135.	YANGI DARSLIKLAR HAQIDA	1041

136.	<i>Ruxsora UNAROVA</i> AHMAD A'ZAM HIKOYALARIDA "JUMBOQ" TASVIRI	1048
137.	<i>Maftuna USMONOVA</i> NAVOIYDA "SHOH" VA "GADO" TUSHUNCHALARI TALQINI	1052
138.	<i>Nigora TOSHMURODOVA</i> FURQAT VA MA'RIFATPARVARLIK G'OYASI SHARIF YUSUPOV TALQINIDA	1057
139.	<i>Muxlisa ASHIRMATOVA</i> NAVOIY VA RUMIY: MUSHTARAK DIDAKTIKA	1068
140.	<i>Dilnavoz NAJIMOVA</i> MUMTOZ TURKIY ADABIYOTNI BOLALAR ONGIGA YETKAZISH AMALIYOTIGA DOIR	1074
141.	<i>Parvina NARZULLOYEVA</i> XAMSA DOSTONLARIDA UCHRASHUV MOTIVINING O'RNI	1083
142.	<i>Roza QURBONOVA</i> NAVOIY VA RUMIY ADABIY MEROSINING BOSHQA TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI	1090
143.	<i>Nigina FAYZULLAYEVA</i> A.S.PUSHKIN VA F.M.DOSTOYEVSKIY ROMANLARIDA EPISTOLYAR JANRNING BADIY-ESTETIK FUNKSIYASI	1097
144.	<i>Ayşe ÖZTOKLU, Sümeyye ÇAĞLAR YILMAZ</i> MEVLÂNÂ CELÂLEDDÎN RÛMÎ'NİN MESNEVİ'SİNDE Hz. MUSA KİSSASINDAN KESİTLER	1104

Dilnavoz NAJIMOVA,

ToshDO'TAU tayanch doktoranti, O'zbekiston

ORCID: 0000-0003-1181-1856

Doi. 10.52773/tsuull.conf.2025/ZAXZ6418

MUMTOZ TURKIY ADABIYOTNI BOLALAR ONGIGA YETKAZISH AMALIYOTIGA DOIR

Annotatsiya: Globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida yosh avlodning dunyoqarashi, axloqiy-estetik didi turli manbalar ta'sirida shakllanmoqda. Ushbu jarayonda bolalar ongiga milliy va umumturkiy adabiy merosni chuqur singdirish masalasi dolzarb ahamiyat kash etadi. Navoiy, Rumi, Nizomiy Ganjaviy, Abay kabi klassiklarning asarlari turkiy dunyo madaniyati uchun umumiy boylik bo'lib, ularni bolalarga yetkazish madaniy uzviylikni saqlash va avlodlararo ko'prik qurishda muhim vositadir. Mazkur maqolada bolalar uchun moslashtirilgan mumtoz adabiyot na'munalarini zamonaviy pedagogik, tarjimashunoslik, tilshunoslik va adabiyotshunoslik yondashuvlari asosida tahlil qilish nazarda tutiladi. Turkiya, Ozarbayjon va Qozog'iston misolida olib borilgan tahlillar orqali turkiy madaniyat doirasida umumiy metodologik yondashuvlarni ishlab chiqish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: bolalar adabiyoti, mumtoz adabiyot, Mavlono Rumi, Alisher Navoiy, Nizomiy Ganjaviy, Abay, adaptatsiya, adabiy ta'sir.

Abstract: In the era of globalization and digital technologies, the worldview and moral-aesthetic sensibilities of the younger generation are shaped by a wide range of influences. Within this context, transmitting the national and shared Turkic literary heritage to children has become increasingly important. The works of classical authors such as Alisher Navoi, Rumi, Nizami Ganjavi, and Abai represent a common cultural legacy across the Turkic world, and their adaptation for young audiences plays a crucial role in preserving cultural continuity and fostering intergenerational dialogue. This article examines how classical literary texts are adapted for children using contemporary pedagogical, translation, linguistic, and literary approaches. Drawing on examples from Turkey, Azerbaijan, Uzbekistan, and Kazakhstan, the study explores the potential for developing a unified methodological framework for conveying classical heritage within the broader Turkic cultural context.

Keywords: children's literature, classical literature, Rumi, Alisher Navoi, Nizomiy Ganjavi, Abai, adaptation, cultural transmission.

Bugungi globallashuv jarayonida yosh avlodni milliy va ma'naviy qadriyatlarga sodiq holda tarbiyalash masalasi har qachongidan muhimroq bo'lib bormoqda. Bu jarayonda adabiyot, ayniqsa,

mumtoz adabiyot na'munalarining ta'lim tizimidagi o'rni beqiyosdir. Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy, Nizomiy Ganjaviy, Abay kabi turkiy xalqlarning buyuk mutafakkirlari tomonidan yaratilgan asarlar bolalarning axloqiy, estetik, ijtimoiy tafakkurini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Mazkur maqolada Turkiya, O'zbekiston va Qozog'iston kabi turkiy davlatlarning mumtoz adabiyot na'munalarini bolalarga yetkazishdagi yondashuvlari qiyosiy tahlil qilinadi. Bu orqali umumiyligini tendensiyalar, o'xshashlik va farqlar, shuningdek, bu tajribalarning dolzarb jihatlari aniqlanadi. Tadqiqotda adabiy manbalar, nashr etilgan bolalar uchun mo'ljallangan asarlar, davlat dasturlari, pedagogik materiallar asosida tahliliy metod qo'llaniladi.

Mumtoz adabiy meros va bolalar adabiyoti

Turkiy xalqlar madaniy merosining ajralmas qismi bo'lgan mumtoz adabiyot na'munalarini, avvalo, insoniylik, ezzulik, mehr-oqibat, bilim va axloq kabi umumbashariy qadriyatlarni o'zida mujassam etgani bilan ajralib turadi. Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy, Nizomiy Ganjaviy va Abay Qo'naboyev kabi mutafakkirlar ijodi asrlar davomida nafaqat kattalar, balki yosh avlod tarbiyasida ham muhim o'rinni tutib kelmoqda. Ularning asarlarida jamlangan hikmatli g'oyalar, hayotiy saboqlar, insonparvarlik va axloqiy yetuklik haqidagi qarashlar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Alisher Navoiy o'z asarlarida bolaning tarbiyasi, tilni to'g'ri o'rganishi, ezzulik va haqiqat yo'lida yashashi haqida juda ko'p qimmatli fikrlarni ilgari surgan. Jumladan, "**Mahbub ul-qulub**" va "**Lison ut-tayr**" kabi asarlarida bolalar uchun ibrat bo'ladigan o'gitlar, qiziqarli obrazlar va tushunarli tafakkur shakllari mavjud.

Jaloliddin Rumiy esa bolalarning ma'naviy kamolotini yurakdan sevgi va bag'rikenglik orqali yuksaltirishga chaqiradi. Uning "**Masnaviy Ma'naviy**" asarida jamlangan tasavvufiy hikoyatlar ham bolalar uchun mos shaklga keltirilganda, chuqur axloqiy saboqlar beruvchi vositaga aylanishi mumkin. Rumiy obrazlari bolalarga mehr, sabr, kechirimlilik, haqiqatni tan olish kabi fazilatlarni tushunishga yordam beradi.

Nizomiy Ganjaviy o'zining "**Xamsa**" turkumidagi asarlarida

tarixiy shaxslar, mardlik, muhabbat va donishmandlik haqidagi obrazlar orqali yosh o'quvchilarni ezentilik va adolat sari yetaklaydi. Ayniqsa, "**Farhod va Shirin**", "**Layli va Majnun**" kabi dostonlarda ifodalangan fidoyilik va vafodorlik motivlari bolalarning hissiy olami va tafakkuriga chuqur ta'sir ko'rsatadi.

Abay Qo'nанboyev esa Qozog'iston adabiy merosining poydevorida turgan shoir sifatida bolalarning ma'naviy dunyosini kengaytirishga qaratilgan ko'plab didaktik she'rlar va o'gitnomalar muallifi sanaladi. Uning she'rlari orqali bola o'z milliy ildizlari, til va tarixiy xotirasi bilan tanishadi, eng muhimi – o'zini anglaydi.

Mutafakkirlar asarlarini bolalar uchun moslashtirish esa shunchaki qisqartirish emas, balki ularning mazmun-mohiyatini saqlagan holda bola tafakkuriga mos shaklda yetkazish demakdir. Bu esa adabiy tarjima, dramaturgiya, illyustratsiya, til soddalashtirish, hikoyachilik kabi ko'plab sohalarning hamkorligini talab qiladi.

Shunday qilib, mutafakkirlarning asarlari bolalarning adabiy didini shakllantirish, axloqiy qarorlar qabul qilish ko'nikmasini rivojlantirish, estetik zavqini oshirish va milliy g'urur tuyg'usini kuchaytirish yo'lida bebaaho vosita bo'lib xizmat qiladi.

Mumtoz merosni bolalarga yetkazishda Turkiya tajribasi



Turkiyada mumtoz adabiy meros, xususan, Rumiy, Yunus Emro, Ahmad Yassaviy kabi mutafakkirlarning asarlarini bolalarga yetkazish masalasi davlat siyosati, ta'lim tizimi va nashriyotlar faoliyatida alohida e'tiborga ega (Aral, 2020). Ushbu mamlakatda "milliy ruhiyatni yosh avlodga yetkazish" g'oyasi asosida qadimiy adabiyot na'munalarining bolalar tili va tafakkuriga mos shaklda targ'ib qilinishi yo'lga qo'yilgan (Demren, 2009). Turkiyada ko'plab yirik nashriyotlar, xususan, **Timaş Yayınları**, **Erdem Yayın Grubu** va **Beyaz Balina Yayınları** tomonidan mutafakkirlar ijodiga asoslangan bolalar kitoblari chop etiladi. Ushbu kitoblarda Rumiy va Yunus Emro hikmatlari qisqa, sodda va obrazli hikoya shaklida, ko'pincha rangli illyustratsiyalar bilan bezatilgan tarzda beriladi. Masalan, "Mevlana'dan Çocuklara Hikmetler" ("Rumiydan bolalarga hikmatlar") nomli turkumda

har bir hikmat oddiy voqealar orqali tushuntiriladi va bolalarga ezgulik, sabr, mehr-oqibat kabi tushunchalarini anglash imkonini beradi (Görkem, 2009). Masalan, Yilmaz Yenidinch “Bolalar uchun Masnaviy” nomli kitob muallifi. Yozuvchi Masnaviyini qayta ishslash jarayonini quyidagicha hikoya qiladi: Mavlononing “Masnaviy” nomli assari olti jilddan iborat ilmlar xazinasidir. U yigirma besh mingdan ortiq baytdan iborat. Biz bolalar ham ushbu buyuk bilim xazinasidan bahramand bo'lishlari uchun katta kuch sarfladik. Birinchidan, biz bolalar tushunadigan bo'limlarni tanladik. Vana ular tushunadigan tilda yozdik. Shuningdek, har bir bo'lim oxirida mustahkamlovchi ma'lumotlarni qo'shdik. Biz ularni rang-barang va tasvirli qilib, ularning e'tiborini tortishga harakat qildik. Qimmatli farzandlarimizga foydasi tegishi qoladi (Çelebi, 2023, p. 128).

Shuningdek, Turkiyada maktabgacha va boshlang'ich ta'lim darajalarida klassik adabiyot na'munalari tanlov asosida dars materiallariga kiritilgan. Masalan, 3–4-sinflarda Yunus Emroning ayrim she'rлari yoki Rumiy hikmatlari sodda tilda berilib, o'qituvchi bu orqali o'quvchilarga milliy va axloqiy qadriyatlarni tushuntiradi. Ba'zi maxsus maktablarda esa “**Masnaviy saboqlari**” degan nom ostida qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkaziladi, bu darslar bolalarga hikmatli hikoyalari, rolli o'yinlar, hikoya yozish mashqlari orqali amalga oshiriladi.


Bundan tashqari, Turkiyada madaniy merosni bolalarga yetkazish faqat darslar orqali emas, balki keng qamrovli **madaniy loyihiilar** yordamida ham olib boriladi. Har yili “**Mevlana Haftasi**” (**Rumiy haftaligi**) doirasida bolalar uchun adabiy viktorinalar, sahna ko'rinishlari, she'rлar musobaqasi, multfilm namoyishlari o'tkaziladi. Ayniqsa, **TRT Çocuk** telekanalida Rumiy va boshqa mutafakkirlarning g'oyalarini singdiruvchi multfilmlar tayyorlanadi (Takil, 2023).

So'nggi yillarda Turkiyada zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda mutafakkirlar ijodini bolalarga yetkazish tajribalari rivojlanmoqda. Masalan, **mobil ilovalar**, **interaktiv e-kitoblar**, **podkastlar** va **animatsion dasturlar** orqali bolalar o'zlari sevgan shaklda – o'yin va tasvirlar vositasida klassik meros bilan tanishmoqda. Bu yondashuv ularning diqqatini jalb qilishda juda samarali hisoblanadi (Lukens et al., 2017). Turkiya

tajribasidan ko'rinish turibdiki, mutafakkirlar merosini bolalarga yetkazish masalasi keng qamrovli, tizimli va ko'pkanalli yondashuv orqali amalga oshirilmoqda. Bu tajriba shuni ko'rsatadiki, klassik adabiyotni bolalar hayotiga singdirish uchun soddalashtirish, zamonaviy texnologiyalar, o'yin shakllari va madaniy muhitdan keng foydalanish zarur.

Nizomiy Ganjaviy merosini bolalarga yetkazishda Ozarbayjon tajribasi

Ozarbayjon Respublikasida klassik adabiy meros – ayniqsa, Nizomiy Ganjaviy, Fuzuliy, Muhammad Fizuliy, Xoqoniy Shirvoniy kabi adiblarning ijodi milliy o'zlikni shakllantirishda muhim manba sifatida qaraladi. Ozarbayjonda ushbu mutafakkirlarning asarlarini bolalar ongiga mos holda yetkazish borasida bir qancha an'anaviy va zamonaviy usullar shakllangan.



(*Nizomiy Ganjaviyning "Xamsa" asari qahramonlari asosida
ishlangan bo'yash kitobi*)

So'nggi yillarda Ozarbayjonda "**Nizami Gencavi irsi usaqlar üçün**" ("Nizomiy Ganjaviy merosi bolalar uchun") nomli turkum nashrlar keng ommalashgan. Bu kitoblarda Nizomiyning "Xamsa" dostonidagi hikmatli lavhalar, obrazlar va axloqiy g'oyalar soddalashtirilgan, qisqalashtirilgan hikoyashaklidabolalargataqdim etiladi. "**Leyli va Majnun**", "**Xusrov va Shirin**" kabi dostonlarning eng muhim ijtimoiy va axloqiy sahnalari rangli illyustratsiyalar bilan birga beriladi, bu esa kichik yoshdagagi o'quvchilar uchun qulay va qiziqarli o'qish imkonini yaratadi. Shuningdek, "**Çocuklar üçün Fuzuli**", "**Usaq ədəbiyyatında klassiklər**" kabi loyihalar doirasida maktabgacha yoshdagilar uchun ham soddalashtirilgan she'riy to'plamlar chop etiladi (Gülden & Kaplan, 2019).

Ozarbayjon maktabalarida ona tili va adabiyot darslarida Nizomiy va boshqa klassik shoirlarning asarlaridan na'munalar kiritilgan. 5-7-sinflarda dostonlardan qisqargan parchalar o'qiladi, o'quvchilar obrazlarni muhokama qiladi, axloqiy saboqlarni tahlil qiladi. Ba'zi maktablarda esa "Nizami dörsleri" deb nomlangan maxsus tanlov kurslari orqali dostonlarning zamonaviy talqini muhokama qilinadi.

Bundan tashqari, **Ozarbayjon Milliy Fanlar Akademiyasi** qoshidagi **Ushaq Ədəbiyyatı İnstitutu** bolalar adabiyotida klassik merosning tutgan o'rni bo'yicha metodik qo'llanmalar ishlab chiqadi va o'qituvchilarga tavsiya etadi. Ozarbayjonda har yili "**Nizami Gəncəvi İli**" doirasida maktablar, kutubxonalar va bolalar markazlarida musobaqalar, sahna asarlari va rasm tanlovlari o'tkaziladi. Bolalar she'r o'qish, hikoya tuzish, dramatik chiqishlar qilish orqali klassik merosga ijodiy yondashadilar. Ayniqsa, "**Nağıl saatı**" (Ertak soati) loyihasi doirasida Nizomiy asarlaridan qismlar ertak shakli-da bolalarga yetkaziladi.

Ozarbayjon Raqamli adabiyot markazlari tomonidan Nizomiy asarlari asosida tayyorlangan audiokitoblar, multfilmlar va mobil ilovalar orqali bolalar nafaqat o'qiydi, balki tinglab, tomosha qilib ham bu merosni qabul qiladilar. Ayniqsa, "Uşaq ədəbiyyat portalı" platformasi orqali ko'plab soddalashtirilgan materiallar, testlar, viktornilar taqdim etiladi.

Ozarbayjon tajribasi shuni ko'rsatadiki, klassik adabiyotni bolalarga yetkazishda soddalashtirish, tasviriylik, ta'lim bilan integratsiya, madaniy tadbirlar va raqamli resurslardan foydalangan holda samarali tizim shakllantirilgan. Bu tajriba boshqa turkiy davlatlar uchun ham o'rnak bo'lishi mumkin.

Qozog'iston: Abay va klassik merosni bolalar ongiga singdirish tajribasi

Qozog'istonda klassik adabiy meros, xususan, Alisher Navoiy, Yunus Emre, Abay, Jambul Jabayev, Ibrohim Oltinsarin kabi turkiy adabiyot namoyandalarining asarlari bolalar ongiga yetkazishda keng ko'lamli va tizimli yondashuvlar qo'llaniladi. Bu mamlakatda bolalar adabiyoti siyosati klassik merosni yosh avlod tarbiyasining ajralmas qismi sifatida shakllantirishga qaratilgan (Eleonora S. va boshqalar, 2024).



(Ibrahim Oltinsarin hikoyalari asosida yaratilgan rasmlı kitob)

Qozog'istonda Abay Qo'naboy o'g'li ijodi bolalarga yaqinlashtirish uchun soddalashtirilgan nasriy va she'riy to'plamlar, zamonaviy tillarda qayta ishlangan ertak va hikoyalar nashr etiladi. **"Abay balalarğa"** ("Abay bolalar uchun") loyihasi doirasida Abayning hikmatlari, maslaklari va she'riy parchalari bolalar tushunadigan tilda qayta yozilib, chiroyli illyustratsiyalar bilan boyitilgan. Shuningdek, Qozog'istonda Jahon mumtoz asarlarini ham qozoqcha uslubda talqin qilish an'anasi mavjud.



(Qizil qalpoqcha ertagining qozoqcha varianti)

Shuningdek, **"Abay sabagy"** ("Abay saboqlari") deb nomlangan o'quv qo'llanmalarida shoirning asarlaridan parchalar axloqiy va ma'naviy savollar bilan birgalikda keltiriladi. Bu o'quvchilarni nafaqat o'qishga, balki tafakkur qilishga undaydi.

Qozog'istonda maktab dasturlarida Abay va boshqa klassik adiblarning ijodi bir necha bosqichda o'rgatiladi. Boshlang'ich sinflarda hikmatli so'zlar va qisqa ertaklar, o'rta bosqichda esa she'riy tahlil, obrazlar va tarixiy kontekst asosida chuqurroq o'rganish amalga oshiriladi.

Abay hayoti va ijodiga bag'ishlangan alohida mavzular 3–7-sinflar oralig'ida ona tili va adabiyot fanlarida muntazam o'qitiladi.

Maxsus tanlov darslari va darsdan tashqari mashg'ulotlarda “**Abay oqulary**” (Abay o'qishlari) deb nomlanuvchi she'rxonlik tanlovlari, insholar musobaqasi, sahma asarlari ko'rinishida yoshlarning ijodkorligi rivojlantiriladi (Kdyralieva et al., 2022).

Qozog'iston tajribasi bolalar adabiyotida klassik merosni yetkazishda soddalashtirish, izchil ta'limiy integratsiya asosida tashkil etilganini ko'rsatadi. Ayniqsa, Abay ijodini milliy o'zlik va axloqiy tarbiyaning markaziga aylantirish tajribasi boshqa turkiy davlatlar uchun ham muhim na'muna bo'la oladi.

Xulosa. Turkiy davlatlar – o'z milliy adabiy meroslarini asrabavaylab, uni yosh avlodga yetkazish yo'lida turli madaniy, ilmiy va metodik yondashuvlardan foydalanmoqda. Navoiy, Rumiy, Nizomiy Ganjaviy va Abay kabi buyuk mutafakkirlarning asarlari turkiy xalqlar uchun umumiy qadriyatlar manbai bo'lib xizmat qiladi. Ularning asarlarini bolalar uchun moslashtirish – nafaqat madaniy uzviylikni ta'minlash, balki yosh avlodni insonparvarlik, go'zallik, bilim va haqiqat ruhida tarbiyalashda muhim vositadir.

Mazkur maqolada tahlil qilinganidek, har bir davlat o'ziga xos tajribaga ega bo'lsa-da, ularning umumiy maqsadi bolalarni ma'nnaviy boy va teran fikrlovchi shaxs etib tarbiyalashdir. Zamonaviy pedagogika, tarjimashunoslik, tilshunoslik va adabiyotshunoslik yondashuvlari orqali mumtoz adabiyotni bolalar ongiga singdirish uslublari takomillashib bormoqda.

Shunday ekan, ushbu qiyosiy tadqiqot natijalari nafaqat milliy, balki turkiy miqyosda ham o'zaro hamkorlikni mustahkamlash, tajriba almashish va umumiy metodologik asoslarni yaratishda muhim qadam bo'lib xizmat qiladi. Kelgusida bu yo'nalishda ilmiy loyihalar, mushtarak o'quv dasturlari va adabiy adaptatsiya bo'yicha qo'shma faoliyatlarni yo'lga qo'yish orqali turkiy madaniy merosni bolalar ongida yanada mustahkamroq shakllantirish mumkin bo'ladi.

Adabiyotlar

1. Eleonora S., Dauren, M., Zhanakul S., Zhanar A., Kuralay T., & Nurgul I. (2024). Children's Literature of Kazakhstan in the Context of World Literature as the Basis of National Identity. *Journal of Ecohumanism*, 3(8), 9925. <https://doi.org/10.62754/joe.v3i8.5605>

2. Aral E.A. (2020). Somut Olmayan Kültürel Mirasın Eğitimi ve Kültürüne Aktarımı: Türkiye Örneği. Doktora Tezi. Ankara: Hacı Bayram Veli Üniversitesi.
3. Demren Ö. (2009). Geleneksel Halk Anlatılarının Çoklu Zekâ Kuramı Çerçeveinde Tahlili. Doktora Tezi. Ankara: Hacettepe Üniversitesi.
4. Takıl N.B. (2023). Türk Sözlü Kültürü ve Çocuk Edebiyatı. Korkut Ata Türkiyat Araştırmaları Dergisi (10), 255-267. <https://doi.org/10.51531/korkutataturkiyat.1245182>
5. Görkem İ. (2009). Dünden Bugüne “Türk Sözel Edebiyatı: Değişim ve Dönüşüm”. A.Ü.Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi, 39, 411-422.
6. Lukens R.J. vd. (2017). Çocuk Edebiyatına Eleştirel Bir Bakış. (Çev. Cenk Pamay). Erdem Yayıncıları.
7. Çelebi S. (2023). Çocuklar için Mesnevi (128th ed.). Üniversite Yayınevi.
8. Gülden B., Kaplan K. (2019). Intangible cultural heritage elements in the visuals of 6th grade Turkish textbook. Journal of Language and Linguistic Studies, 15(1), 291-306. <https://doi.org/10.17263/jlls.547742>
9. Kdyralieva Z., Suranchiyeva N., Asilkhanovna B.M., Tasilova N.A., & Gauhar B. (2022). Innovative technologies of teaching ancient literary heritage. World Journal on Educational Technology: Current Issues, 14(6), 1991–2002. <https://doi.org/10.18844/wjet.v14i6.8412>